

# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM


CONFERENCES.UZ

# 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST  
№55

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
9-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-9**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 55-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ TUTGAN ЎРНИ**

<b>1. Ibragimov Aziz Turayevich</b> MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	7
<b>2. Ibragimov Aziz Turayevich</b> XORIJIY INVESTITSIYALAR TUSHUNCHASI HAMDA ULARNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	9
<b>3. Axrorova Zarina Baxtiyorovna</b> YANGI O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING TUTGAN O'RNI.....	11
<b>4. Fazilova Xurshida Ibragimovna</b> IQTISODIYOTNING ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASHNI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	13
<b>5. Kamilova Malika Akmalovna, Gapparova Dildara Bakhtiyorovna</b> EXPLORING A VARIATY OF ASSESSMENT TOOLS FOR MEASURING EFFECTIVENESS OF TALENT DEVELOPEMENT PRACTICES.....	15
<b>6. Б.Б. Султонмуродов</b> КРЕДИТОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЁТ РЕСУРСОВ МЕЖДУ- НАРОДНОГО БАНКА РЕКОНСТРУКЦИИ И РАЗВИТИЯ.....	18
<b>7. Б.Б. Султонмуродов</b> РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО КРЕДИТОВАНИЯ В УСЛОВИЯ РЕФОРМИРОВА- НИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ .....	21



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ibragimov Aziz Turayevich**  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri  
Telefon: +998914057161  
Azizibragimovj5@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Xalqaro va milliy darajada investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishda etarli tajribalar mavjud. Investitsiyani moliyalashtirish asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoriga bog‘liq takliflar berilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya, investitsiyalar moliyaviy mexanizmlari, ichki investitsiyalar, akselerator modeli, kapitalga cheklangan moyillik, kapital samaradorligi, ichki investitsiyalardan samarali foydalanish.

O‘zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog‘liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo‘jalik yurituvchi subyekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarini kengroq jalb etish, ularning mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta‘minlashning muhim asosiga aylangan. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma‘lumki, har qanday davlat jahon tajribalarini o‘rganmasdan, dunyoning etakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas.

Xalqaro va milliy darajada investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishda yetarli tajribalar mavjud. Investitsiyani moliyalashtirish asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoriga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizda sifatli xomashyoning boy resurslari mavjudligi iqtisodiyotimiz uchun investitsiyalarni jalb qilish o‘ta zarurligi va shu bilan birga, xom-ashyo resurslar bazasini tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qarashimiz zarurligi yaqqol namoyon bo‘lib turibdi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalariga jalb etishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo‘yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

Erishilgan yutuqlar bilan birga bu borada to‘siq va kamchiliklar mavjud. Mamlakatni investitsiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining etarli darajada ko‘paymaganligini ko‘rsatish mumkin. Shu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi kerak:

1. Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va echimini topish maqsadida, xorijiy



investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo‘lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi yetuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o‘rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislari, olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiylikini ta’minlash lozim.

2. Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko‘p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta’sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini zaif olib borilayotgani, natijada ko‘plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo‘lib qolayotganligi ko‘rsatilmoqda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning o‘ziga bog‘liq qaratilib, echim izlamasdan, aholi va korxonalarining iste’mol qobiliyatini ko‘tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga iisbatan sog‘lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida holis va ishonchli axborot ta’minoti hamon yaxshi yo‘lga qo‘yilgani yo‘q. Bu masalani hal qilish uchun muqobil va mustaqil nodavlat axborot agentlarini tashkil qilinishi lozim. O‘zbekiston investitsion muhitni takomillashtirish xorijiy kapitalni jalb qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish bo‘yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyatsiya darajasini past darajada ushlab turish, inflyatsiyaning investitsion loyihalarni qiymatini o‘shishiga ta’sirini kamaytirish, xorijiy investitsiyalar tarkibida bevosita xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko‘paytirishga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, birinchi navbatda xom-ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni aytib o‘tish joizdir:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro‘yxatga olish tizimini soddalashtirish.

2. Xorijiy sarmoyadorni qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarni aniqlash va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo‘lgan sohalariga chet el kapitalini jalb qilish.

3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog‘ini ko‘paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

4. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta’minlash zarur, ya’ni yirik korxonalariga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni etkazib beruvchilari bo‘lishlari zarur.

5. Eksportga ishlaydigan kichik korxonalarini ko‘paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun etarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Shernaev, A. A. (2021). Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Студенческий вестник, (20-14), 74-76.

2. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.

3. Xamdamova, R. R. Q., & Shernayev, A. A. (2022). Xalqaro moliya bozorida operatsiyalarning rivojlanish istiqbollar. Science and Education, 3(1), 1111-1116.





## XORIJIY INVESTITSIYALAR TUSHUNCHASI HAMDA ULARNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

**Ibragimov Aziz Turayevich,**  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri  
Telefon: +998914057161  
Azizibragimovj5@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Hozirgi kunda ko'pgina korxonalar faoliyatini kengaytirish hamda jahon bozoriga chiqish maqsadida xorijiy investitsiyalarga ehtiyoj sezadi. Ushbu tezisda xorijiy investitsiyalar tushunchasi hamda uning milliy iqtisodiyot uchun qay darajada muhimligi ko'rib chiqiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** Investitsiya, kapital qo'yilma, milliy iqtisodiyot, foyda, davlat tomonidan moliyalashtirish, imtiyozlar, iqtisodiy barqarorlik.

Ma'lumki, har qanday davlat tashqi dunyodan ajralgan holda, jahondagi ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlardan, iqtisodi rivojlangan davlatlarning tajribalaridan samarali foydalanmasdan rivojlanishi mumkin emas. Ushbu maqsad yo'lida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

«Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida: “chet el investitsiyalari — chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”, deb e'tirof etilgan.

Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Xorijiy investitsiyalarni yo'nalish ob'ektiga qarab, moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni xususiy mulk egalari investitsiyalari tashkil etadi.

Xorijiy investitsiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi qisqa vaqt ichida mulkchilikning turli shakllarini tashkil topishiga ko'maklashdi, O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, nufuzli tarmoqlarning barpo etilishini ta'minladi. Eng muhimi, O'zbekiston iqtisodiyotining baynalmilallashini va O'zbekistonning xalqaro bozorga o'z mahsulotlarini olib chiqishini va u erda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minladi.

Xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi respublikamizda xususiylashtirish jarayonlarini tashkil etish bosqichlari bilan bog'liq bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy poydevorini yaratish ham, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari shakllarini belgilab berdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimlari:

- O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shma korxonalar barpo etilishiga asos soldi;
- xorijiy korxonalar barpo etilishiga zamin yaratdi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, milliy iqtisodiyotning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral resurslar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur'atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog'lidir.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni barpo etish, investitsiya muhitini takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish respublikamiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

E'tiborlisi, sohada qator ijobiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasiga keng ko'lamda integratsiyalashuvi, milliy iqtisodiyotga investitsiyalar olib



kirilishi uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi. O'zbekiston “ochiq eshiklar” siyosatini olib bormoqda, chet ellik investorlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun ishonchli huquqiy kafolatlar va keng iqtisodiy imkoniyatlar bermoqda.

Xorijiy investorlar uchun eng qulay tartiblar yaratilgan va ular muttasil takomillashtirib borilmoqda. Chet el sarmoyasi ishtirokida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish jarayoni imkon qadar osonlashtirilgan. Respublikada qabul qilingan qonunlar va qonun asosidagi hujjatlar chet el firmalari va kompaniyalari O'zbekiston bozorlarida faol ishtirok etishi uchun soliq sohasidagi imtiyozlar va rag'batlantirish choralarning, siyosiy va tijorat sohasidagi xavf-xatarlardan kafolatlarning yaxlit tizimini, qulay qonuniy sharoitlarini yaratib beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida”gi 30.12.2021 yildagi PQ-72-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son Qonuni.

3. Bernar, Kolli “Tolkoviy ekonomicheskii i finansoviy slovar”. V 2 T. M; 1994. – s.253.

4. <http://topuch.com/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-mahsus-talim-vazirligi/index7.html#pages>



## YANGI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO‘JALIGINING TUTGAN O‘RNI.

**Axrorova Zarina Baxtiyorovna**  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri  
Telefon:+99891-419-22-08

**ANNOTATSIYA.** Bugun "Yangi O‘zbekiston", "O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi" degan nomlar orqali xalqaro maydonda munosabatlarimiz silsilasida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yangi O‘zbekistonni bu jamiyatimiz hayotidagi siyosiyijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o‘zgartirgan, yangi, demokratik qiyofaga mamlakat sifatida ko‘rish uchun ham barcha soha tarmoq qatori qishloq xo‘jaligini ham jahon talablariga moslash ya‘ni rivojlantirish kerak. Bu vaqtda har bir soha va tarmoqlar qatorida qishloq xo‘jaligi sohasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu sohaning rivojlanishi uchun mamlakatimizda yetarlicha ekologik va agrar imkoniyatlarga ega. Ushbu tezisda, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligini tutgan o‘rni haqida batafsil fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, qishloq xo‘jaligi, rivojlanish, boshqaruv xodimlari, iqtisodiyot, agrar soha.

Qishloq xo‘jaligi barcha davrda eng muhim tarmoqlardan biri bo‘lgan. Boisi, inson yashar ekan, oziq ovqat mahsulotlariga hamisha talab kuchli bo‘ladi. Dunyo olimlarining fikriga ko‘ra, 2050 yilga qadar yer yuzi aholisi 8 milliarddan ortadi. Bu esa oziq ovqatga bo‘lgan talabning bir necha barobar ortishiga sabab bo‘ladi. Bu esa ko‘pchilik ekspertlarni xavotirga solmoqda. Ayni bu vaqtda Yaponiya va Janubiy Koreya texnologiyasi barcha mamlakatlar uchun andoza, shuningdek, tajriba bo‘lmoqda bemaol ayta olamiz. Intensiv tarzda mahsulotlar yetishtirish, yiliga 4-5 balkim undan ko‘proq marta hosil olish imkonini o‘rganish mumkin. Yerdan unumli foydalanish, intensiv usuldagi issiqxonalarni ko‘paytirish aslida davr talabi hamdir. O‘zbekiston bugun 36 millionlik aholiga ega bo‘lgan, o‘tgan davrda ko‘plab muammolar to‘planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to‘g‘ri yo‘l tanlash – kuchli bilim, tajriba va azmu shijoatni talab etadi. Ya‘ni O‘zbekiston aholisining ko‘payishi, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida alohida tashabbusga muhtoj ekanligi kundek ravshan edi. Yangi O‘zbekiston aynan yuqoridagi sabablarni inobatga olgan holatda qishloq xo‘jaligiga alohida e‘tibor qaratilishi davr talabi ham edi. Bu borada esa qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun belgilangan yangi tartiblar va g‘oyalarni amalga oshirish muhim rolga ega.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarimizning eksportda oqsayotgani shu jihatbilan ham bog‘liq. Shu bois endilikda Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va arab mamlakatlari standartlari asosida mahsulotlarni sertifikatlash tizimini joriy etish choralari ko‘riladi. Eksport salohiyatini oshirishda tomorqa xo‘jaliklari boy manba hisoblanadi. Boisi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 70 foizi tomorqalarda yetishtiriladi. Hozir O‘zbekistonda 4,5 million aholining tomorqa yer maydonlari mavjud.

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi ham salmoqli o‘rin egallaydi. Bu borada qishloq xo‘jaligi boshqaruv xodimlariga qo‘shimcha imtiyozlar va yo‘nalishlar belgilab berilmoqda. "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi." Shuningdek, Qishloq xo‘jaligi qo‘shimcha imkoniyatlarga boy soha. Shu sababli, keyingi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumaladan, davlat xarid narxlarining qariyb 3 barobar oshirilishi paxtachilik va g‘allachilikni daromad keltiradigan tarmoqqa aylantirdi. Qolaversa, paxtachilikda mutlaqo yangicha ish tutushiga, ya‘ni klaster tizimiga o‘tilgani mehnatga munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Ishni samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyati yuzaga keldi. Shuningdek, paxta maydonlarida sug‘orishning tejamkor usullari tatbiq etildi. Shu yilning o‘zida 25 ming gektar paxta maydonida suv tejovchi yangi sug‘orish tizimi joriy qilinishi natijasida o‘tgan yildagiga nisbatan uch barobar ko‘p hosil olish kutilayotgani, foydalanishdan chiqqan 1 million



100 ming gektar yer maydoni qayta foydalanishga qaytariladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi faol qo'llab-quvvatlanadigan davlatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar berilmoqda. Agrar sohasiga davlat tomonidan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 2-3 barobar ko'p mablag' ajratilmoqda. Shuning uchun ham 2025-yilga borib, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi faqat bozor mexanizmlari asosida tartibga solinadi. Tan olish kerak, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish borasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Birinchidan, bozorni o'rganish va bozor topish borasida muammolar bor. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida eng katta e'tibor bozor mexanizmlariga qaratilgan. Buning zamirida dehqon, fermer ishlagandan keyin yerdan daromad topsin, degan maqsad yotibdi. Shu bilan birga, unda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ham nazarda tutilgan. Chunki aholi har yili ko'payib bormoqda. Bu bozorda ehtiyoj ham ortib boryapti, degani. Shunday ekan, paydo bo'layotgan ehtiyojni qondirishning eng asosiy yo'llari bu unumdorlik va hosildorlikni oshirishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030- yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4714632>

2. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyotsolnomasi>

3. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-qishloqkhozhligini-rivozhlantirish-strategiyasi-iqtisodiyotimiz-drajveri-khalqimiz-turmushfarovonligini-taminlovchi-yangi-bosqichdir>

4. [https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot\\_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogistonsanoat-va-qishloq-xojaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda](https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogistonsanoat-va-qishloq-xojaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda)

5. President.uz "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda." <https://president.uz/oz/lists/view/4547>



**IQTISODIYOTNING ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA SANOAT  
KORXONALARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASHNI TASHKIL ETISH VA  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Fazilova Xurshida Ibragimovna**  
Osiyo xalqaro universiteti magistri  
Telefon +998973070107  
javani 1122@mail.ru

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada iqtisodiy jarayonlar, voqea-hodisalar obyektiv tahlil qilinib, yetarli ilmiy-uslubiy asosda, real sektor korxonalarida mehnatga haq to'lashni takomillashtirish va uslubiy bilim bilan real sektorda kechadigan jarayonlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pensiyalar, investitsiyalarining, stavkalar, konsepsiyas, konyuktura

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni real sektor rivojini prognozlash, bu jamiyat va iqtisodiyotni rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holda istiqbolni ilmiy asosda oldindan bilish, bashoratlash harnda ushbu jarayonlarni jamiyatning umumiy taraqqiyoti maqsadlari va vazifalarini mazkur fan milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy barqaror rivojlanishini boshqaruv mexanizmlarini yechimlarini tanlash imkoniyatini beradi va istiqbolda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish yo'llarini belgilaydi. Hozirgi davrda O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning real sektori barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotganligini e'tirof etish lozim. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov e'tirof etganlaridek, “Erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va ularni joriy etish borasida 2016-yilda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2019-yil 21-may PF-5723-son Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 1. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasining asosi etib qabul qilinsin va Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 2. Xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etish asosi sifatida Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasidan foydalanuvchi tashkilotlar mehnatga haq

to'lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib, qo'llanilayotgan tarif koeffitsiyentlari o'z vaqtida qayta hisoblab chiqilishini ta'minlasin. 3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida” 2018-yil 13-oktabrdagi PF-5553-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqiladigan davlat boshqaruvi organlari, budget va davlat tashkilotlarining mehnatga haq to'lash tizimini tubdan takomillashtirish konsepsiyasi loyihasida quyidagilarni nazarda tutsin: -davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlari mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini va ularni moddiy rag'batlantirishning boshqa turlarini aniqlashga yagona uslubiy yondashuvni; -ayrim vazirlik va idoralar uchun tarif stavkalariga oshib boruvchi koeffitsiyentlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatga haq to'lash bo'yicha guruhlari belgilanishi natijasida vazirliklar va idoralar, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari o'rtasida mehnatga haq to'lashda ayni vaqtda mavjud bo'lgan tabaqalashuvni bekor qilishni; -moddiy rag'batlantirish miqdorlarining xodim faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlariga, uning bilim va ko'nikmalariga, bajaradigan mehnat funksiyalarining murakkabligi va javobgarligi darajasiga bevosita bog'liqligini belgilash. 4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin. 5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin. 6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — moliya vaziri J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin. Ishchilar mehnatiga haq to'lash-bu mehnat resurslarini bahosi bo'lib, u muhim darajada sarflangan mehnat soni va sifati, mehnatga talab va taklif, mujassamlashgan aniq konyuktura, hududiy tomonlar, qonuniy me'yorlar kabi sof bozor omillari ta'sirida ishchi kuchi narxini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti, bozordagi ishchi kuchlari soni,



hududiy joylashgan mehnat resurslari, qayerda unga talab bo`lgan, va qaysidir joylardagi ortiqcha taklif sezilayotganini aniqlash mehnatni markazlashtirishni talab etadi. Kompleks barcha bunday omillar, aniq mehnatga haq to`lashda ishlatiladi. Bozor sharoitid mehnatga haq to`lash bir qancha holatlarga asoslangan. Shuningdek, iste'molchini talabi va konyukturasi holati ishchi omil, qaysiki jamoa va aloxida ishchi daromadi darajasini belgilaydi. Bunday holat ishlab chiqaruvchilarni ko`paytirish o`rniga iqtisodiy ma'suliyat va yaratilgan mahsulot natijalarini uning sifat darajasi va bahosi xalqni keng talabiga bog`liqligini oshiradi. Bozor sharoitida ishchi kuchlarini harakati kuchayadi. Korxonada faoliyati o`zgaradi, sababi bozorda barcha yangi-yangi tovar nomenklaturasi va sifatiga talablarni

kuchayadi, bir-xil ishlab chiqarish yo`qoladi, boshqalari dunyoga keladi. Unchalik zarur jashuni ko`rsatadiki, korxonada faoliyatining samaradorligi asosan korxonada mutahassis kadrlariga bog`liq bo`ladi. Bozor munosabatlariga o`tish bilan korxonalar mehnatga haq to`lash sohasida katta mustaqillikka erishdilar. Tahlillar natijasida shu narsa ma'lumki, bu davrga kelib korxonalarda mehnatga haq to`lashda ko`proq vaqtbay-mukofotli va tarifsiz haq to`lash, shuningdek, shartnoma asosida haq to`lashdan foydalana boshladilar. Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi o`zaro chambarchas bog`liq bo`lgan tushunchalar hisoblanadi. Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo`yicha reja tuzilib, uning maqsadlari ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zahiralarni topish va shu asosda mehnat mahsuldorligini oshirishga qaratilgan bo`lishi lozim. Bu rejalarga ko`ra, mehnat umdorligining o`sish sur`ati o`rtacha ish haqi sur`atlaridan tezroq o`sishi lozim. Ishlar malakasi- mutaxassislik bilimi va amaliy tajriba darajasi bilan belgilanadi hamda ular bajaradigan aniq tur ishning murakkablik darajasini ifodalaydi. Kadrlar stabililik koefitsienti bir butun korxonada yoki alohida bo`linmalarida ishlab chiqarish boshqaruvini tashkil etish darajasini baholashda foydalanish tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki ishchilar mehnatiga haq to`lash mehnat resurslarini bahosi bo`lib, u muhim darajada sarflangan mehnat soni va sifati, mehnatga talab va taklif, mujassamlashgan aniq konyuktura, hududiy tomonlar, qonuniy me'yorlar kabi sof bozor omillari ta'siri asosida ishchi kuchi narxini ifodalaydi.

#### REFERENCES

